

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

Nurmatova Hanifa Ermatovna

Shoxliyeva Suluv Elmurodovna

O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213265>

Maktabda boshlang'ich sinflarini mustaqil fikrlashga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar bilim olish barobarida ta'lim jarayonini obyektiga emas, o'qituvchining hamkoriga aylansin.

Zero mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, vatani, ota-onasi oldida burchini to'la-to'kis bajara oladi, yot ta'sirlarga berilmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi.

Shuningdek mustaqil fikrli inson o'zining xatti-harakati va odamlar bilan munosabatga tanqidiy baho bera oladi, milliy hamda umuminsoniy axloq me'yorlariga rioya etadi, mustahkam e'tiqodiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari juda keng. Ularning ichida o'quvchini matn ustida ishlashga yo'naltirish mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, bunda matnni bo'laklarga bo'lish va ularga sarlavha qo'yib mazmunini saqlagun holda qisqartirib o'qish, o'qituvchining savollariga matndan javob topib eng chiroyli tasvirlangan bo'lakni o'qish, matndagi bosh g'oya ifodalangan gaplarni aniqlash, ertak yoki masalani o'qiganda "Nima haqiqatga yaqin, nima o'ylab topilgan?" mavzusida suhbat o'tkazish xulosalarga tinglangan voqea hodisalarga o'z munosabatini bildirish, "Asar sizga nimasi bilan yoqdi?" , mavzusida suhbat uyushtirish, matndagi har xil kayfiyatga xos (quvnoq, xafa, befarq) qismlarni, siymolarni ifodalovchi so'zlarni topish, qiyin so'zlar ma'nosini aytib o'qish, matnni qismlarga bo'lib ifodali o'qish va qismlarning biridan ikkinchisiga navbat bilan o'tish, voqea yoki hodisani so'z yordamida tasvirlash kabilar kiradi. "Sizning qahramonga munosabatingiz?", "Hikoya qahramoni bilan do'stlashishni xohlaysizmi?", "Unga qanday maslahat bergan bo'ladingiz?" kabi savollar rejs bilan ishlashda, o'quvchilarga reja tuzing, tuzgan reja ketma-ketligiga amal qiling, reja qismlarini to'g'irlang, gaplar mazmunini o'zgartiring kabi topshiriqlar berish, maqolni to'ldiring, rasmga qarab, biror qahramon nomidan hikoya tuzing, she'r kim tomonidan aytilyapti, unda yashiringan sirni toping, hikoyadagi voqealarni chizmada ifodalang, o'zingiz xohlagan hikoya, ertak yoki she'rda tasvirlangan voqealar asosida rasm chizing kabi xilma-xil topshiriqlar kiradi. Masalan, "She'rni kim aytyapti?", "She'rga siz qanday qo'shimcha qila olasiz?" kabi topshiriqlar berish o'quvchilarning tafakkurini ysnada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ba'zi darsliklarda matn oxirida beriladigan savollar o'rganilgan ma'lumotlarni yana boshdan qaytarishga undaydi. Matnni avval o'qituvchi o'qiydi va mazmunini so'zlab beradi, so'gra o'quvchilar ham o'qib mazmunini so'zlaydilar, savollarga javob berish jarayonida yana shu hol takrorlanadi. Xuddi shuningdek "Bo'lish mumkin emas", "Matndagi xatoni top?" o'yinlari rebus boshqotirmalar ham o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Ayniqsa, darslikdagi rasm ustida ishlashga doir mashqlar yuzasidan olib boriladigan savol javoblarda bola faol ishtirok etadi, rasmga munosabat bildiradi. Agar rasm asosida hikoya yozish topshirig'i berilsa u o'z tasavvurlariga tayangan holda hikoyani mustaqil yoza oladi.

References:

1. Almamatova M. IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 66-69.
2. Shavkatovna A. M. LINGUISTIC FEATURES OF ADDRESSING IN ENGLISH AND UZBEK //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 14-18.
3. Abdullaeva F. B., Isarov O. R. Theoretical and Practical Issues of Technical Terminology //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2019. – Т. 2019. – №. 1. – С. 8.
4. Abdullaeva F. B., Rasulova Z. B., Isarov O. R. On the Definition of Technical Terms and Terminological Dictionaries //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2019. – Т. 2019. – №. 1. – С. 7.
5. Исаров О. Полипропозитив таксис структуралари: модус ва диктум референцияси //вестник каракалпакского государственного университета имени бердаха. – 2012. – Т. 15. – №. 1-2. – С. 106-108.
6. Isarov O. R. Comparative study of the conceptions related to the category of taxis //Journal of Critical Reviews. ISSN-2394-5125. – 2020. – Т. 7. – №. 12.